

aylanib qoqa boshladi. Titroq bosib boryabdi. Baqiray desam atrofda hech kim ko‘rinmaydi. Rostini aytganda, baqirishga undan uyalamani. "Balki changimni qoqib bo‘lib, o‘lgidek savalar", deb o‘ylayman."

Bu epizod Menglimurot bilan Turdimurotning birinchi uchrashuvi haqida hikoya qiladi. Eng so‘nggi voqealar, jumladan, Menglimurotning qishloqqa aralashuvi, oqsoqollarning yangi o‘qituvchi haqidagi tanqidiy mulohazalari va ota-onalarning farzandlarini maktabga olib bormasliklarini ma‘lum qilishlari bilan tasvirlanadi. Menglimurot esa mag‘lub bo‘lmaydi. Uni amalga oshirishda barcha to‘siqlarni yengib o‘tadi. Bu eskisini yo‘q qilish orqali yangi davr va hayot uchun yangi ma‘noning tasviri edi. Muallif Menglimurot obrazi bilan qoraqalpoq adabiyotida ustozning qay darajada ijodkor ekanligini tushuntirib berdi.

T.Qaipbergenovning "Sovuq bir tomchi" qissasi "Rahmat, muallim"dan keyin yozilgan. Olim Q.Kamolov "Sovuq bir tomchi" qissasi muallifi voqea va kompozitsiyani rivojlantirishda ko‘proq lirik-epik uslubdan foydalanganligini ta‘kidlaydi. Kamol hikoyaning asosiy qahramoni. Ulug‘ Vatan urushi paytida uning otasi dushmanga sotilgan. Otasining xiyonatini eshitib, u juda ko‘p azob-uqubatlarni boshdan kechiradi. U qishloq aholisi va do‘stlarining noto‘g‘ri qarashlariga duch keladi. U bu qiyin vaziyatdan chiqish uchun turli xil variantlarni ko‘rib chiqadi. Ayniqsa, maktabda o‘qib yurgan paytlarida Kamolning qiyinchiliklari ko‘p bo‘ladi. Ko‘p do‘stlari uni tez-tez tanqid qilishadi. Sinfdoashlaridan biri Umrboyning otasining aybiga aytgan gapi Kamolni butunlay ezib qo‘yadi va o‘z joniga qasd qilmoqchi bo‘ladi. Kamolning qasosi natijasida hatto o‘lim undan yuz o‘giradi. Qissa so‘ngida u shaharga ko‘chib o‘tadi, yangi tanishlar orttirib, yangi hayot boshlaydi, o‘zi uchun to‘g‘ri yo‘lni tanlay oladi.

T. Qaipbergenov qalamiga mansub "Uyqusiz tunlar" qissasi ham uning sevimli asarlaridan edi. Muallif ushbu asarda Ulug‘ Vatan urushi yillarida yetim qolib, bolalar uyida ulg‘aygan Gulzar Qoraqalpoqova haqida fikr yuritadi. Gulzar voyaga yetganidan so‘ng o‘z hayotini saqlab qolgan insonni qidiradi va farzandlik burchini bajarish haqida o‘ylaydi. Hikoyaning bosh qahramoni Gulzar bu xayrli vazifani ado etish uchun ko‘plab sinovlarni – yaxshi va yomonni yengib o‘tishi kerak bo‘ladi. Muallif Gulzar va uning otasi Do‘stnazarov timsolida voqelikni aks ettiruvchi sahifa yaratdi. Do‘stnazarov siymosida fidoyi askar va fidoyi ota siymosi, Gulzar obrazi esa nikohdagi chinakam halol farzanddir. Gulzar va uning otasi uzoq vaqt ayriliqdan so‘ng nihoyat bir-birini uchratganda o‘quvchining yuragi tez-tez urib ketadi. Gulzor qalamiga mansub ta'sirli satrlarni hikoya qilish orqali muallif Do‘stnazarovning mehribon tabiatini ko‘rsatadi. Nihoyat, taniqli yozuvchi T.Qaipbergenov o‘z asarlarida qahramon mohiyatini mahorat bilan aks ettiradi. Yozuvchi Menglimurot, Kamol, Gulzor obrazlarini rivojlantirish orqali o‘z davrining o‘ziga xos kurashlarini tasvirlay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Kamalov Q. Qoraqalpoq povesti (janrning evolyutsiyasi).-Nukus : Qoraqalpog‘iston, 1977.
- 2.Qayipbergenov T. Roman, povestler.-Nukus : Qoraqalpog‘iston, 1978.
- 3.Qayipbergenov T. Muallimga rahmat.-Nukus : Bilim, 2016.

TIL BIRLIKLARIGA KOGNITIV YONDASHUV

Xoliqova Zahro Arol qizi, Shahrisabz davlat pedagogika institute tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola til birliklariga kognitiv yondashuv va uning mohiyatini aniqlashga oiddir. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan. Maqolada til birliklari alohida tasnif qilinib, ularning kognitiv vazifasi ochib berilgan. Maqola oxirida xulosa mavjud.

Kalit soʻzlar: *Konsept, kognitiv yondashuv, olamning lisoniy manzarasi, soʻz, soʻz birikmasi, gap, freym, script.*

Bizga maʼlumki, tilning muhim vazifalaridan biri kommunikativligidir. Ammo keyingi davr tilshunosligidagi *konsept, kognitiv yondashuv, olamning lisoniy manzarasi* masalari tilning maʼlumotlarni saqlash, tushunchani nomlash, milliy madaniyatni ifodalash, dunyo haqda bilimlarini shakllantirish kabi vazifalarini koʻrsatadi

Til hodisalariga kognitiv yondashuvning rivojlanishi uni bizning ongimiz va aqlimizning kontseptual va kognitiv tuzilishlaridagi maʼlumotlar manbai sifatida tushunishga yordam berdi. Kognitiv yondashuv tadqiqot obyektni umumiyaxlitlash va leksik maʼnodagi tarkibiy qismlarni tahlil qilish usullarini kengaytirishga imkon beradi. Kognitiv lingvistikada barcha til jarayonlari insonning bilish faoliyati bilan olamni kontseptuallashtirish va kategoriyalashtirishga xizmat qiladi⁴⁷. Aynan olamni kontseptuallashtirish va kategoriyalashtirish til birliklarining kognitiv tomoni ochib berishda dastlabki bosqich hisoblanadi.

Tilshunoslikda mentallik xususiyatiga ega boʻlgan til birliklari belgilar tizimi sifatida tushuniladi va ular vositasida inson oʻzini oʻrab turgan obyektiv olamga xos xususiyatlarni asta-sekinlik bilan anglaydi, voqelik faktlarini oʻzlashtira boradi. Ana shu holatda tilning oʻz ijtimoiy vazifalarini namoyon etishi bevosita amalga oshiruvchini – inson ishtirokini taqozo qiladi. Zamonaviy tilshunoslikning anʼanaviy tilshunoslikdan farqi shundaki, unda lisoniy hodisalar mohiyatini ochib berishda belgining ifoda va mazmun planiga emas, balki mazkur jarayonni amalga oshiruvchi inson omiliga, insonning bu jarayondagi oʻrniga alohida eʼtibor qaratiladi. Kognitiv tilshunoslik shu asosda inson ongidagi milliy-madaniy, ruhiy-falsafiy, qomusiy, mantiqiy bilimlari zahirasi va ularni nutqning ogʻzaki va yozma shakli orqali namoyon boʻlishini taʼminlovchi vosita – tilni ongga bogʻliq holda oʻrganishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi va lingvistik tadqiqotlarda shunga asoslanadi. Til birliklariga bunday yondashuv birlikning barcha qirralarini ochib beradi. Bundan tashqari har bir til birligi vazifasiga koʻra ham farqlanadi. Masalan, soʻz bilan soʻz birikmasini turlicha kognitiv tahlil qilinadi.

Til birliklarining tahlil jarayonidagi barcha natijalar kognitiv bilim berishda xizmat qiladi. Til birliklari insonning olamni anglashda birlamchi vositalar hisoblanadi. Ularining har birida umumiy, xususiy maʼnolar va har bir inson tafakkurida takrorlanmas obrazi mavjud.

Tovush. Tildagi har bir tovush oʻzining obrazi va nutqdagi koʻrinishiga ega. Har bir tovushning tilda oʻz vazifasi bor. Masalan A tovushi yuklama *Oʻn toʻrt soʻm berasiz. - A, oʻn toʻrt soʻm (Oybek. Tanlangan asarlar).*⁴⁸ Yasovchi qoʻshimcha: *Son+a = sana, qiyin+a=qiyna.* Alifbodagi birinchi harf, oʻrganishdagi birinchi harf, *qalam* soʻzida qattiq, *maktab* soʻzida yumshoq, a harfining maʼno-vazifalari juda koʻp. Yapon tilidagi a bilan ingliz tilidagi a harfining umumiy va xususiy farqlari va birlashtiruvchi belgilari bor. U haqida cheksiz maʼlumotlar bor.

⁴⁷ Shodieva Shoxida Inatovna. TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YONDASHUV. *Образование и инновационные исследования (2023 год № 7)*

⁴⁸ Oʻzbek tilining V jildlik izohli lugʻati I jild. – Toshkent. 26-bet.

Ularning barchasi kognitiv bilim beruvchi ma'lumotlardir. Bular har bir insonning tajribasi, bilimiga ko'ra lisonida voqelanadi.

So'z. Boshqa til birliklaridan farqli o'laroq so'zning vazifasi kognitiv faoliyat asosini tashkil etadi. Tabiatdagi barcha mavjudotlar, his-tuyg'ularning nomlashda ishtirok etishning o'zi kognitiv vazifadir. Bir so'zning grammatik, semantik ma'nolari, mantiqiy hukmlar barchasi kognitiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Ular insonlarning har birida tajriba, bilimiga ko'ra voqelanadi. Bir so'z bir tushuncha yoki narsani anglatish uchun xizmat qilishidan tortib talaffuzi, turli tillarda turli ma'no anglatishigacha kognitiv tilshunoslik uchun muhim hisoblanadi. Chunki ularning har biri o'rganishni osonlashtiradi.

So'z birikmasi. So'zdan ko'ra aniqroq, xususiyroq ma'nolarni anglatadi. Masalan, *Kitob* so'zining ma'nosidan, *ukamning kitobi*, *Qizil kitob*, *qiziqarli kitob*, *kitobga yozmoq*, *qiziqarli kitob* ma'nosida kitob ma'nosi aniqroq.

Gap. Gapdagi ma'no yanada aniqroq. Gap tarkibidagi so'zlar aynan nima uchun xizmat qilishini gap anglatgan ma'nodan bilib olish mumkin. Demak, til birliklarida ma'no bosqichma-bosqich aniqlashib boradi.

Yuqoridagi tasnifdan tashqari kengroq ma'noda til birliklariga iboralar, maqollar, hikmatli so'zlar, predloglarni (ingliz tilida) ham kiritishimiz mumkin. Chunki ular ham tilning ma'no anglatuvchi vositalari hisoblanadi. Iboralarning kognitiv tahlili ancha murakkab. Har bir iborada lingvokognitiv ma'nolaridan tashqari lingvomadaniy ma'no ham mavjud bo'ladi. Bundan tashqari har bir tilning o'ziga xosligi ham kognitiv bilimlardir. Ularning tahlili esa kognitiv tahlildir. Masalan, ingliz tilidagi fe'llarning predloglar bilan kelganda har xil ma'no anglatishi, o'zbek tilidagi ko'makchi fe'llar yoki boshqa tillardagi urg'u.

Sh. Safarov kognitiv faoliyatda nutq birliklari deb **freym**, **ssenariy**, **skript**larni sanab o'tadi va har biriga izoh beradi: **Ssenariy** biror bir tipik hodisaga xos o'zaro bog'liq faktlarning ularning uzviyligini aks ettiruvchi namunaviy shakl misolida yoritilishidir. Ushbu namunaviy strukturama'lum voqelik bo'lagiga oid harakatlar, holatlar uzviy munosabatlaridan iborat (masalan, restoranda tushlik, dars jarayoni, institutga qabul, muzey ziyorati va hokazo). **Skript** (inglizcha script so'zining tub ma'nosi «qo'lyozma, yozuv») namunaviy konseptual tuzilmalarning bir turi sifatida qaralib, u inson tafakkurida aks etayotgan borliqdagi voqelarning me'yoriy ketma-ketligi namunasidir.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlashimiz joizki, kognitiv tahlil so'zning barcha qirralarini qamrab oladi va uni aniqroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari bir tilni o'rganayotganda ham so'zning ma'no-mohiyatini tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilidagi til birliklarini sanaydigan bo'lsak, so'z birikmasi so'zga nisbatan, gap so'z birikmasiga nisbatan, matn gapga nisbatan aniqroq ma'no ifodalaydi. Til birliklarining kognitiv ma'nosini aniqroq ifodalash uchun grammatik vositalar va kognitiv semantika yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor, 2006 91-b
2. O'zbek tilining V jildlik izohli lug'ati I jild. – Toshkent. 26-bet
3. Shodieva Shoxida Inatovna. Tilshunoslikda kognitiv yondashuv. *Образование и инновационные исследования* (2023 год № 7)